© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

TIJORAT BANKLARI QIMMATLI QOG‘OZLAR PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI RISK VA DAROMADLILIK MUTANOSIBLIGINI TA’MINLASH

Alimov Baxodir Muradjanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
BAlimov@nbu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.22895419

Kirish. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar portfeli bank aktivlarini diversifikatsiya qilish, vaqtincha bo‘sh mablag‘larni daromadli joylashtirish, likvidlikni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy risklarni boshqarishning muhim vositasi hisoblanadi. Bank portfelini shakllantirishda faqat daromadlilikni oshirishga intilish bozor, foiz, kredit va likvidlik risklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, faqat past riskli instrumentlarga mablag‘ yo‘naltirish portfel daromadliligini cheklaydi. Shu sababli qimmatli qog‘ozlar portfelining tarkibini emitent, instrument turi, muddat, valyuta va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha diversifikatsiya qilish bank moliyaviy barqarorligini ta’minlashning zarur shartlaridan biridir.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida qimmatli qog‘ozlar kredit operatsiyalariga muqobil va ularni muvozanatlashtiruvchi aktiv sifatida qo‘llaniladi. Barclays Bank hamda Bank of America faoliyatining 2021–2025-yillardagi ko‘rsatkichlari bank aktivlarida kreditlar bilan bir qatorda qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar ham salmoqli o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Mazkur banklar portfelida hukumat qimmatli qog‘ozlari ulushining yuqoriligi portfel likvidligi va ishonchliligini mustahkamlasa, qarz va hissali qimmatli qog‘ozlarning uyg‘unligi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Asosiy qism. Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning nazariy asosi risk va kutilayotgan daromad o‘rtasidagi nisbatni baholashga tayanadi. H.Markowitz portfel nazariyasiga ko‘ra, alohida moliyaviy instrumentlar daromadliligining kutilayotgan ko‘rsatkichdan farqlanishi o‘zaro qoplanishi mumkin va natijada portfelning umumiy riski pasayadi. Demak, diversifikatsiyaning mazmuni qimmatli qog‘ozlar sonini shunchaki ko‘paytirish emas, balki daromadlari turli omillar ta’sirida shakllanadigan instrumentlarni maqbul nisbatda birlashtirishdan iborat.

U.Sharpe modelida qimmatli qog‘oz daromadliligi bilan bozor indeksi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholanadi. Ushbu yondashuv tizimli va diversifikatsiya orqali kamaytiriladigan risklarni ajratish imkonini beradi. Biroq fond bozori yetarli darajada rivojlanmagan va qimmatli qog‘ozlar baholari yuqori o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitda tarixiy ma’lumotlar asosidagi modellarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash lozim. Bank investitsiya qarorlarida fundamental tahlil, texnik tahlil, emitentning moliyaviy holati, instrument likvidligi va makroiqtisodiy ssenariylar birgalikda hisobga olinishi kerak.

O‘zbekiston bank amaliyoti tahlili qimmatli qog‘ozlar portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi. Xususan, O‘zmilliybank qimmatli qog‘ozlar portfelida kompaniyalar aksiyalarining ulushi 2021-yildagi 59,4 foizdan 2025-yilda 30,5 foizga kamaygan. Shu davrda Markaziy bank obligatsiyalarining ulushi 2025-yilda 42,8 foizni, davlat obligatsiyalari 23,8 foizni, korporativ obligatsiyalar esa atigi 1,6 foizni tashkil etgan. Bir tomondan, davlat va Markaziy bank obligatsiyalari portfelning likvidligi hamda ishonchliligini oshiradi. Ikkinchi tomondan, portfelning cheklangan emitentlar va instrumentlarda jamlanishi konsentratsiya riskini kuchaytirishi hamda daromadlilik imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Asakabank portfeli tarkibida ham aksiyalar va davlat qimmatli qog‘ozlarining sezilarli ulushi kuzatiladi, korporativ obligatsiyalar ulushi esa nisbatan pastligicha qolmoqda. Banklar kesimidagi bunday holat milliy fond bozorida sifatli korporativ instrumentlar taklifining cheklanganligi, ikkilamchi bozor likvidligining yetarli emasligi, emitentlar to‘g‘risidagi axborotlar shaffofligi va

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

investitsion reytinglar tizimining rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bois portfelni diversifikatsiyalash faqat bank ichki siyosati bilan emas, balki kapital bozori infratuzilmasini rivojlantirish bilan ham bevosita bog‘liq.

Bank portfelini samarali diversifikatsiya qilish uchun qimmatli qog‘ozlar emitentlarning tarmoq mansubligi bo‘yicha guruhlanishi zarur. Sanoat, transport, energetika, aloqa, moliyaviy xizmatlar va boshqa tarmoqlarga mansub emitentlar daromadlari iqtisodiy siklga turlicha munosabat bildiradi. Mablag‘larni bir tarmoqda jamlash mazkur tarmoqdagi salbiy holatning bank portfeliga to‘liq ta’sir qilishiga olib keladi. Tarmoqlar kesimidagi limitlar esa konsentratsiya riskini kamaytirib, portfel daromadlari barqarorligini oshiradi.

Valyuta tarkibi bo‘yicha diversifikatsiya ham alohida ahamiyatga ega. Milliy valyutadagi qimmatli qog‘ozlar yuqori inflyatsiya sharoitida real qiymatini yo‘qotishi mumkin. Xorijiy valyutadagi instrumentlar esa valyuta kursi riskini yuzaga keltiradi. Shuning uchun bank aktivlari va majburiyatlarining valyuta tarkibi o‘zaro muvofiqlashtirilishi, ochiq valyuta pozitsiyasi limitlari va xedjirlash imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. Bunda portfelning asosiy qismi bank majburiyatlari shakllangan valyutada saqlanishi maqsadga muvofiq.

Qimmatli qog‘ozlarni muddatlar bo‘yicha diversifikatsiya qilish foiz riskini boshqarish imkonini beradi. Asosiy stavka oshayotgan sharoitda uzoq muddatli qat’iy stavkali qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymati pasayadi. Qisqa muddatli instrumentlar esa tezroq qayta investitsiya qilish imkonini beradi, biroq qayta moliyalashtirish riskini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli qisqa, o‘rta va uzoq muddatli instrumentlarning ulushi bank majburiyatlari muddati va foiz stavkalari prognoziga mos ravishda belgilanadi.

Portfel daromadliligini oshirishda investitsiyalar o‘sish sur’ati bilan ulardan olinadigan foiz va dividend daromadlari o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblik muhim mezondir. Investitsiyalar hajmi tez oshib, daromadlar shunga mos ko‘paymasa, portfel boshqaruvi samaradorligi pasayadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zgarmaydigan stavkali qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha sof foizli marjaning maqsadli darajasini 4,5 foiz atrofida ta’minlash, oddiy aksiyalarga investitsiyalar daromadliligini esa riskni qoplaydigan darajada, jumladan 15 foizlik maqsadli mezon asosida baholash taklif etiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar bozor sharoiti, inflyatsiya va resurslar qiymatiga muvofiq muntazam qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Diversifikatsiyalangan portfel ham doimiy monitoringni talab qiladi. Bank emitentlarning moliyaviy ko‘rsatkichlari, qarz yuklamasi, pul oqimlari, dividend siyosati, kredit reytingi va bozor kotirovkalarini muntazam baholashi zarur. Portfel bo‘yicha stress-testlar foiz stavkasi, valyuta kursi, inflyatsiya va bozor baholarining keskin o‘zgarishi sharoitida kutiladigan yo‘qotishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Natijalar asosida limitlar, zaxiralar va aktivlar tarkibiga tuzatishlar kiritiladi.

Xulosa. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar portfelini diversifikatsiya qilish bank aktivlari daromadliligi va risk darajasi o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta’minlash imkonini beradi. O‘zbekiston banklarida portfelning davlat va Markaziy bank qimmatli qog‘ozlarida yuqori darajada jamlanganligi likvidlikni qo‘llab-quvvatlasa-da, korporativ instrumentlar va tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiya imkoniyatlarini cheklaydi. Portfelni emitent, tarmoq, instrument turi, muddat va valyuta tarkibi bo‘yicha shakllantirish, fundamental hamda texnik tahlilni rivojlantirish va stress-testlardan foydalanish investitsiya operatsiyalarining barqarorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda diversifikatsiya siyosatini takomillashtirish uchun: birinchidan, har bir emitent va tarmoq bo‘yicha investitsiya limitlarini belgilash; ikkinchidan, yuqori likvidli davlat instrumentlari bilan daromadli korporativ qimmatli qog‘ozlar o‘rtasida maqbul nisbatni shakllantirish; uchinchidan, investitsiyalar va ulardan olinadigan daromadlar o‘sishini o‘zaro muvofiqlashtirish; to‘rtinchidan, portfelni raqamli monitoring qilish va stress-test natijalariga ko‘ra tezkor qayta tarkiblash maqsadga muvofiq.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Adabiyotlar, References, Литература:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance. 1952. Vol. 7. P. 77–91.
3. Aksenov V.S., Zubov Ya.O. Formirovanie i upravlenie investitsionnym portfelem v usloviyax finansovogo krizisa // Finansy i kredit. 2010. №7. S. 22–28.
4. Vasilenko D.V. Diversifikatsiya investitsionnoy deyatelnosti bankov. Avtoreferat dissertatsii. Moskva, 2015. 32 s.
5. Voronova N.V. Otsenka urovnya doxodnosti i riska portfelya sennых bumag v kommercheskom banke // Finansy i kredit. 2012. №27. S. 38–45.
6. O‘zmilliybank va Asakabankning 2021–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari // www.nbu.uz; www.asakabank.uz.
7. Bank of America va Barclays Bank yillik hisobotlari, 2021–2025 // www.bankofamerica.com; www.barclays.com.